25-may kuni o’tkaziladigan “So’ngi qo’ng’iroq“ tadbiri ssenariysi

Vosilxo’ja : Assalom azizlar , muhtaram zotlar,
Tashrif uchun rahmat diydor g’animat
Bu damlar g’animat , umr g’animat
So’zimiz boshlashga etingiz ruxsat

Elshod : Assalomu alaykum , mehridaryo ustozlar , mehribon murabbiylar, hurmatli ishchi aka-opalar.

Vosilxo’ja : Assalomu alaykum , bugungi “So’nggi qo’ng’iroq ” tadbiriga tashrif buyurgan aziz ota-onalar , qadrli maktabdosh do’stlar

Elshod : Qo’limdan kelgancha aylab ta’rifin
Bitiruvchilarimizning qilib hurmatin
Taklif etmoqlikka berasiz ruxsat
Qarsak urib turing maktabdoshlarim

Vosilxo’ja : Bugungi so’nggi qo’ng’iroq tantanasining asosiy sababchilari 9-sinf bitiruvchi o’quvchilarini kutib olaylik.

(MUSIQA SADOLARI OSTIDA BITIRUVCHILAR KIRIB KELISHADI)

1-boshlovchi : Assalom, ey ahli donishlar salom
Mehri ummon qalbi quyoshlar salom
Qo’llar ko’ksimizda dermiz xush kalom
Aziz ustozlarim salom assalom

2-boshlovchi : Ey olloh nazari tushgan ustozlar

E’tiqod bulog’i toshgan ustozlar
Dillarda ehtirom tillarda kalom
Deymiz biz sizlarga, salom assalom

1-boshlovchi : Assalomu alaykum ,aziz ustozlar, qadrli mehmonlar, maktabdoshlar.

Bugun biz bitiruvchilar uchun eng hayajonli hamda quvonchli kun .

2- boshlovchi : Tuprog’ingda daholar xoki
Ul sohibi dunyolar xoki
Bobolarki, ulug’ chinordek
Momolarki, Qutlug’ Nigordek
Chinorlarki, beshiklar bo’lgan
Kelajakka eshiklar bo’lgan
Sen onasan muqaddas Vatan
Yagonasan muqaddas Vatan

Xazinamsan, taxtim o’zingsan
Qiyosi yo’q baxtim o’zingsan
Yer yuzining jannati sensan
Yaratganning san’ati sensan
Jannatbog’im hazrattog’imsan
Mehrobimsan, sajdagohimsan
Sen onasan, muqaddas Vatan
Yagonasan, muqaddas Vatan

Manglaydagi Durri Akbarim
Ne ko’zlarni olgan gavharim
Qora niyat, g’araz so’zlardan
Asragaymiz yomon ko’zlardan
Ko’ksim ichra yuragim tumor
Bu tumorda qutlug’ noming bor

Sen onasan muqaddas Vatan
Yagonasan muqaddas Vatan

1-boshlovchi : Biz O’zbekiston deb atalmish jannatmakon yurt farzandi ekanligimizdan faxrlanamiz. Tantanali onlarimizda yangraydigan madhiyamiz bizning g’urur va iftixorimizdir.

Madhiya ijro etiladi.

1-boshlovchi : Bugungi so’nggi qo’ng’iroq tantanasini ochib berish uchun so’z navbatini maktab-internatimiz direktori , muhtaram ustozimiz I. O. Qodirovga beramiz. Marhamat ustoz.

2-boshlovchi :Biz ulug’ O’zbekistonning navqiron avlodlarimiz. Bizning bu hayotda orzularimiz , ko’zlagan maqsadimiz qiladigan ishlarimiz juda ko’p, lekin eng buyuk , eng muqaddas vazifamiz xalqimiz istiqbolini ko’z qorachig’day asrash, uning xafsizligini ta’minlashdir.

Vatan haqida she`rlar:

1. Bugun bizlar barkamol avlod
   Shu vatanning suyanch, ardog`i
   Azim chinor bo`lsa gar Vatan
   Bizlar uning ko`rki, yaprog`i
2. Mag`rur dilda muqaddas maqsad
   Shu vatanning koriga yarash
   Va shuuriga bosilgan farah
   Tiniq fitrat, keng dunyoqarash
3. Biz hech kimdan kam bo`lmaymiz
   Kam bo`lmaymiz, illo hech qachon
   Biz birdammiz, sofid qadammiz
   Ortimizda Vatan jonajon

Hamma

Biz barkamol, o`ktam avlodmiz

Kelajagi buyuk davlatmiz

1-boshlovchi : Bugun yuragimizda hayajon, quvonch qarshingizda turar ekanmiz dono bobo – buvilarimizning “Umr oqar daryo” degan hikmatlarini yana bir bor esga olmoqdamiz

2-boshlovchi :. Ha keksalarning har bir so`zi hikmat, hayot yo`llarimizda mayoq. Prezidentimizning 2015 – yilni “Keksalarni e`zozlash” yili deb nomlashlari ham bejiz emas.

1-boshlovchi : Keksalarning davrlar sinovidan o`tgan so`zlari purhikmat maqollarga aylanib ketgani hech kimga sir emas

2-boshlovchi :.”Ustoz otangdek ulug`” deydilar. Hayotda yaxshi ustozdan ta`lim olishning o`zi baxt-omad.

Ustoz haqida she`rlar

1. Ko`ngling zilol suvdek oqib ketadi

Tanangga havolar yoqib ketadi
Quyosh ham havasla, boqib ketadi
Yo`lingda muallim – ustoz uchrasa

1. Ezgu - orzularla ko`nglingni sof tut

Qayerda bo`lsang ham yaxshilarni kut
Ustozga ta’zim qil, g`amlarni unut
Yo`lingda muallim- ustoz uchrasa

1. Aytsang me`zon bilmas, ustoz ta`rifi

Sha`n – u maqtoviga topilmas kalom
Ma`rifat quyoshi nur sochgan yurtda
Ulug` ustozlarga ulug` ehtirom

1. Ustoz saboq bergan dars xonalarda

Vatan kelajagi bo`lmoqda bunyod
Ilm ziyosida, yurak
qaridan
Voyaga yetmoqda barkamol avlod

B. Bizning omadimiz, baxtimiz ana shunday bilimdon ustozlar jam bo`lgan viloyat miqyosida tanilgan 5- viloyat ixtisoslashtirilgan davlat umumta`lim maktab-internatida tahsil oldik.

Maktab haqida she`r

1. Iqtidorli yoshlarga boy

Sen misoli quyoshi oy
Yuragimdan olding-ku joy
Hayotimga bo'lding chiroy
Maktabjonim faxrimsan
Biz yoshlarning baxtimizsan.

1. Olloh bergan hur istiqlol

Mustaqillik baxtu iqbol
Farzandlaring topar kamol
Yashnab ochgin ko'rkam jamol
Maktabjonim faxrimizsan
Biz yoshlarning baxtimizsan.

1. Ustozlarning madhi bitmas

Maktabga ko'p qilgan havas
Yo'llaringga tushmasin xas
Qasd qilganlar bo'lsinlar past
Maktabjonim faxrimizsan
Biz yoshlarning baxtimizsan.

Maktab haqida qo'shiq (Eng gullagan)

Men sizni quyoshga qilaman qiyos
Muhtaram ustoz!
Quyoshday mehr bor nigohingizda
Yo'q, yo'q, beqiyos!

1. Ustoz ta'rifini aytmoq uchun

Til ojiz, so'z yetmas.
Minnatdor shogirdlaringizning

Dil izhorlari siz uchun.

1. 1. Bahorning eng go’zal gullari sizga

Quyoshning eng yorug’ nurlari sizga

Umrning eng baxtli yillari sizga

Biz uchun doimo azizsiz, ustoz!

1. 2. Mehr-la so’zlagan so’zingiz go’zal

Quvonchi porlagan yuzingiz go’zal

Bizga bilim bergan o’zingiz go’zal

Biz uchun doimo azizsiz, ustoz!

1. Hayot maktabida berdingiz saboq

Ammo yo’llar uzun, manzillar yiroq

Ketsak-da, qalbimiz ketmagay yiroq

Biz uchun doimo azizsiz, ustoz!

2. Mo’tabar nomingiz tillarda doston

Qo’shiq. (_____)

Ustozlarga she’r

1. Qirq besh daqiqa qadrin kim bilar

Sochining oqi-yu, ajinlar ular

Bolalar qalbiga tushar tuyg’ular

Maktabimning dono muallimlari

1. Shodliklar ko’p ularning sanog’i yo’qdir

Siz bergan mehrning adog’i yo’qdir

Siz kabi ilmning fidoyi yo’qdir

Maktabimning dono muallimlari

1. Siz ekkan nihollar ushbu kun daraxt

Biri meva berar birisi salqin

Sizga boqib turib kelar havasim

Mehringiz quyoshi xuddi bir oftob

1. Shogirdlar niholu bog’bon muallim

Mehri mo’jizaviy ummon muallim

Madhini kuylasam bo’lmagay ado

Ta’rifi tuganmas doston muallim

1. Ey aziz muallim,tarifingizni

Ta’riflash bizlarga kechmaydi oson

Birgina so’z aytay sizga mos qilib

Sizdirsiz dunyoda eng aziz inson

1. Murg’ak dilimizni siz yoritdingiz

Oq-qora ranglarni siz tanitdingiz

Dunyoning borligin, ham go’zalligin

Boshimiz silabon siz o’rgatdingiz

1. So’zlasam titrardi sizning labingiz

Qo’shiq kuylasam jo’r ovozingiz

O’yingoh bag’rida men jovlon ursam

Olqishlab zafarga siz chorladingiz

1. Sizdayin insonlar mingtadan bitta

Chiqsa chiqadiki la’l kabi kamyob

Ustozlar doimo bo’ling salomat

Mehringiz buloqday toshsin toabad.

1. Onamdek ulashib bor mehringizni

Yil davomida berdingiz ta’lim

Nurlari edik biz shu ko’zingizni

Sizdan minnatdormiz aziz muallim

1. Sinfga bosh bo’lib bo’ldingiz ona

Sershovqin maktabim mo’jaz darsxona

Ustozlar ichra siz tanho yagona

Sizdan minnatdormiz aziz muallim

1. Bazan sho’xlik qilib o’ynaganmiz rost

Bazida jahlingiz chiqardik biroz

Ushbu dam sizgadir qalbdagi e’zoz
Sizdan minnatdormiz aziz muallim

1. Bolalik yillar ham o’tdi shosha

Maktabdir biz uchun qadrdon go’sha
Hatto biz o’zgardik siz o’sha-o’sha
Sizdan minnatdormiz aziz muallim

1. Dunyo sizlar bilan oboddur bu kun

Boshimiz tekkuncha qilamiz ta’zim
Shogird kalomi sizgadir bu kun
Sizdan minnatdormiz aziz muallim.

Sahna ko’rinish.

1. Besh yil o’qidik biz birga hamnafas

Tanaffus bo’lishin ko’p kutdik biroq
Bugunchi maktabdan hech ketgim kelmas
Chalinmay turoqol so’nggi qo’ng’iroq

1. Eng yaqin do’stlarim ,sinfdoshlarim

Partaga bosh qo’yib ko’z yoshi munchoq
Yashirgim kelmaydi men ham yoshlarim
Chalinmay turaqol so’nggi qo’ng’iroq

1. Nelar kutmoqdadir bizlarni hali

Muhabbat sevinchmi baxtmi yo so’roq
Nahotki yetda tark eymoq mahali
Chalinmay turaqol so’nggi qo’ng’iroq

1. Besh yil umr shoshib o’tibdi

O’tgan umr yo’llaringdir oq
Bilolmadim qayon ketibdi
Jarnglayver song’gi qo’ng’iroq

1. Seni qo’llab bugun talashsin

Tortqilashsin va erkalashsin
Urushganlar mangu yarashsin
Jaranglayver so’nggi qo’ng’iroq

1. Bahor o’tib yetishdi yozlar

Yaxshi orom aqlni ko’zlar
Ustozlarimizning ko’zlari hamisha sevinchdan porlab tursin. Biz, shogirdlar sizlarni hamisha ko’zimiz qarog’ida, qalbimiz ardog’ida saqlaymiz.

Rahmat sizga aziz ustozlar
Jaranglayver so’nggi qo’ng’iroq

Qo’shiq (Ey cholg’uchi)

O’quvchilarning orzulari haqidagi she’rlar

1-boshlovchi : Aziz ustozlar ,sizlar biz uchun eng qadrdon, eng aziz insonsiz. Shuning uchun yuragimiz qo’ridagi e’zgu orzularimiz haqida sizga aytgimiz keldi.

1. 1. Bayramimiz ko’p bo’lar

Ustozlar, bo’lsam katta
Muhandis yoki olim
Men bo’laman albatta.

2. Kiyim-bosh ham ko’p bo’lar,

Sanab bo’lmaydi hatto
Sizga homiy, zo’r bankir
Men bo’laman albatta.

1. Maktablar soz, zo’r bo’lar

Kompyuter, silliq parta
Ustoz, katta tadbirkor
Men bo’laman albatta.

1. Ustoz, bo’lsam savdogar

Qo’lim bo’lmaydi kalta
To’yingizda bosh-u qosh

Men bo’laman albatta.

1. Opajonlar dam oling

Qo’lda paxta termoq or
Mashinalar yaratib
Bo’lay olim ijodkor

1. Ko’p urunmang, dadajon

Serob bo’lar osh-u non
Kelajakda albatta
Bo’laman zo’r agronom

1. Uztozlar, hormang tolmang

Hozir muhimdir ta’lim
Ko’rasiz, oliygohda
Men bo’laman muallim.

1. Hech o’ksimang onajon

Bir kun bo’lasiz qoyil
Bo’lsam Vatan ishida
Mirzo Boburdek shoir

1. Oq yo’l tilang azizlar

Ilm olib to’laman
Ilyosjon Qodirovdek
Eng zo’r rahbar bo’laman

1. Informatika fanin

Sirlarini o’rgandik,
Biz maktabni ikkinchi
Uyimiz deb bilgandik.
Kelajakda yangicha
Dasturlarni tuzaman
SHuhratjon ustoz, uzr
Hali sizdan o’zaman.

1. Nozimjon ustoz bergan

Bilimlarin oqlayman
Asqarjon sudya bo’lib
Haqiqatni yoqlayman.

1. Jurnalist bo’lish asli

Jasoratli bo’lmoqlik
Vatan yurt ravnaqini
Keng olamga yoymoqlik
Ustozlarning madhida
Maqolalar yozaman
Azizxon Ho’jayev deb
Unga imzo qo’yaman.

1. Hisob kitob ilmini

O’rgandim shu maktabda
Ustozlar Agrobankda
Elbek kutar albatta.

1. Chet ellarda sayyohlar

Kelsa kutib olaman
Qo’qonda besh yulduzli
Grand hotel quraman.
London, Parij, Vashington
Qolar bir kun hayratda
Omon bo’lsa Tokio

1. Men boraman albatta

Chet ellarda o’qiymiz
Duo qiling, domlajon
Gulla yashna hur diyor
Vatanim O’zbekiston

1. Aylang duo, ustozlar

Yashaylik yarataylik
O’zbekiston shuhratin

Dunyoga tarataylik.

(9-“A”sinf sahna ko’rinishi)

(Ustozlar ta’rifida she’rlar)

Ota-onalarga so’z beriladi.

Maktab bayrog’i va kaliti topshiriladi

Qo’shiq (_____)

Nominatsiyalar beriladi:

Eng tirishqoq

Eng mas’uliyatli

Eng ijodkor

Eng mehnatkash

Eng tartibli

Eng uyquchi

Eng ko’p dars qoldirgan

Eng beg’am

Eng bahonachi

Eng baqiroq

Sinf rahbarlariga so’z

Sinf rahbarlariga she’r

Qo’shiq(ey sinfdosh)

Oquvchilar davradan chiqib ketadilar

Direktor tomonidan taqdirlash

Sahna ko’rinishi

Bitiruvchilar kirib keladi

“Xayr do’stlarim “qo’shig’i

Songgi qo’ng’iroq haqidagi she’rlar:

Bitiruvchilar tantanali va’da beradilar:

1. Maktabimizning o’ziga xos an’ana, udumi bor. Hozir ustozlar ota-onalar oldilarida biz bitiruvchilar tantanali va’da bermoqchimiz.

2. Biz 2015-yil bitiruvchilari ustozlarimiz, ota-onalarimiz, maktabdoshlarimiz qarshisida:

a)maktabimiz sha’nini ko’tarishga

b)ustozlar o’gitlarini, bergan bilimlarini oqlashga

d)mustaqil vatanimizga munosib farzand bo’lishga

e)Vatanga sodiq bo’lishga tantanali ravishda qasamyod qilamiz.

Sinfdosh haqidagi she’rlar

Maktab olib qo’ldi sho’x yillarimiz
Bo’ldi endi boshqa o’z yo’llarimiz
Ulg’oyib borsak-da, hali ko’ngil yosh,
Xayr endi, xayr aziz sinfdosh.
Sinfxonamizda qoldirgan izlar,
Yosh to’la ko’zlarim shu izni izlar
Til esa faqat sog’inchdan so’zlar
Xayr endi, xayr aziz sinfdosh.

Qayerda bo’lsang ham sog’-omon bo’lgin
Olisda yursang ham mardona turgin
Baxtli bo’l, omading kelsin ilohim
Xayr endi, xayr aziz sinfdosh.

Qo’ng’iroq chalinadi(qo’shiq)

Maktab direktoriga so’z beriladi.

Bitiruvchilar tantanali chiqib ketadilar.